

## Mavzu: Tovush va harflar. Bo'g'in. Tovush va harf (fonetik) tahlili



*To'gga jala\* yo'g'sa,  
soyga suv toshar.*



\***jala** – kuchli yomg'ir, ya'ni qisqa vaqt ichida juda ko'p yog'adigan yomg'ir



Odatda, insonlar yomg'irli kunni yaxshi ko'rishadi. Bu ularni tinchlantiradi. Ijodkorlarni esa ilhomlantiradi. Yomg'ir ovozi ostida notalar oson yoziladi. Shunda go'zal, dilga yoqimli asar yaratiladi.

Keling, Frederik Shopenning yomg'ir musiqasini tinglaylik.



- Suvning shovqinidan tashqari yana qanday tovushlarni eshitdingiz?



**1-mashq.** She'rni ifodali o'qing.  
Ajrati ko'rsatilgan so'zlarni fonetik tahlil qiling.

### So'zlovchi yomg'ir


Ishim o'zi shunaqa:  
Hamma joyga yog'aman.  
Qarindoshman qor bilan,  
Shudringvoyga tog'aman.

Yaylovdagi suruvdek  
Ko'kda kezib yursak ham,  
Bizlar asli **Yerlikmiz**, –  
Deydilar **Bulut** onam.

Abdurahmon Akbar



1. O'zbek tilida necha tovush va harf bor?
2. Harf va tovushning bir-biridan farqi nimada?
3. Tovushlar yozuvda nima bilan ifodalanadi?
4. Qaysi tovushlar bo'g'in hosil qiladi?





**2-mashq.** O'qing. So'zlarni fonetik tahlil qiling.

tong, salqin, maktab, chaqqon, maqtanchoq, hosildor



**3-mashq.** Bir harf bilan farqlanuvchi so'zlarni juftlab yozing.



bedana  
ziyoda  
talaba  
pishloq  
gujum  
kecha  
farishta



g'alaba  
necha  
sedana  
sarishta  
piyoda  
hujum  
qishloq



**Tovush** – nutqning eng kichik, bo'linmaydigan fonetik birligi.



**“HA-YO‘Q”** intellektual o'yini.

1. Unli tovushlar bo'g'in hosil qiladi.
2. Hozirgi o'zbek adabiy tilida 23 ta undosh tovush bor.
3. Unli tovush bilan tugagan bo'g'inlar yopiq bo'g'in deb ataladi.
4. Undosh tovush bilan tugagan bo'g'inlar yopiq bo'g'in deb ataladi.
5. *Apelsin* so'zida bitta ochiq, ikkita yopiq bo'g'in bor.
6. *Mu-do-fa-a* bo'g'in ko'chirish qoidasiga mos.



**4-mashq.** Rasmlar nomining bosh harfidan foydalanib, soʻz tuzing. Ushbu soʻzni fonetik tahlil qiling.



**5-mashq.** Harflar ishtirokida soʻzlar tuzing. Kim koʻp soʻz tuzsa, gʻolib sanaladi.



**6-mashq.** Sheʼrni boʻgʻinga ajratib yozing. Yopiq boʻgʻinlarning tagiga bir chiziq chizing.

### Kuz qoʻshigʻi

Bogʻlar koʻm-koʻk koʻylagin  
Boʻyab oldi sariqqa.  
Shildirar zilol suvlar,  
Quloq solsang ariqqa.

“Qiyov-qiyov” turnalar  
Janub tomon oldi yoʻl.  
Koʻkka qarab bolalar,  
Qiyqirib silkitar qoʻl.

*Ergash Raimov*

